

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 63 (1389), 2025-yil 28-mart, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



YEVROPA ITTIFOQI BILAN AMALIY HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQLDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-mart kuni Yevropa Ittifoqining Tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo‘yicha oliy vakili, Yevropa komissiyasi vitse-prezidenti Kaya Kallas boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi. Amaliy hamkorlikni kengaytirish va bo‘lajak qo‘shma tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish masalalari ko‘rib chiqildi.



Uchrashuv avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Yevropa kengashi Prezidenti Antoniu Koshta va Yevropa komissiyasi Prezidenti Ursula fon der Lyayenning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Joriy yil 3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti tadbirlarini o‘tkazish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Ashxobod shahrida o‘tgan vazirlar darajasidagi ko‘p tomonlama uchrashuvning samarali yakunlari yuksak baholandi.

Savdo va logistika, shu jumladan, Transkaspiy transport yo‘lagi salohiyatini ro‘yobga chiqarish, raqamlashtirish, “yashil” energetika, ekologiya, infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda ikki mintaqa o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlikni ilgari surish, tashabbus va loyihalarni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini joriy qilish muhimligi qayd etildi.

O‘zbekistonning EI institutlari bilan munosabatlarini yanada chuqurlashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi yangi bitimni qabul qilish hamda mamlakatimizning Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilishi masalalari muhokama qilindi.

Xalqaro va mintaqaviy siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘ZA

XUSUSIYLASHTIRISH ORQALI IQTISODIYOTGA QO‘SHIMCHA INVESTITSIYA KIRADI, TADBIRKORLARGA IMKONIYAT YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-mart kuni davlat mulkini xususiy lashtirish bo‘yicha joriy yilgi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, yer va inshootlardan samarali foydalanish maqsadida xususiy lashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. 2021-2024-yillarda 47 trillion so‘mlik davlat aktivlari sotilgan. Bu — oldingi o‘n yillikdagi ko‘rsatkichdan 30 karra ko‘p.

Bular hisobiga davlat ishtirokidagi korxonalar soni 2 karra qisqardi, iqtisodiyotda davlat ulushi 13 foizga kamaydi. Xususiy lashtirish mulk samaradorligi ham bir necha barobar oshdi.

Oldinlari, asosan, kichik korxonalar va obyektlar sotilgan bo‘lsa, endilikda yirik davlat aktivlari ham sotuvga chiqarilmoqda. Jumladan, Qo‘ng‘iro‘t soda zavodi, “Foton”, “O‘ztemiryo‘lkonteyner” kabi yirik korxonalar, “International” va “Lotte” mehmonxonalari xususiy lashtirildi.

O‘tgan yili noyabrda ilk bor “Xalq IPO”si bo‘yicha Tovar-xom ashyo birjasining 3 milliondan ortiq aksiyasi aholiga sotildi, 11 ming odam aksiyadorga aylandi.

Lekin hali tizimda kamchiliklar, hududlar va tarmoqlarda foydalanilmayotgan imkoniyatlar ko‘p. Bo‘sh turgan joylarni iqtisodiy aktivlarga aylantirish, auksionga qo‘yilgan tayyor binolarni sotishda sustkashliklar bor.

Masalan, hududning ixtisoslashuvi, kommunikatsiya o‘tkazish imkoniyati o‘rganilmasdan auksionga chiqarilgan 1,5 ming gektar yer 1 yildan ortiq sotilmagan. 4 mingta yer uchastkasini auksionga chiqarishda kelishish jarayonlari cheklangan. Vazirlar va hokimlar o‘tgan yili sotilishi kerak bo‘lgan 243 ta mulkni Davlat aktivlari agentligiga o‘tkazib bermagan.

Yirik davlat korxonalarida ham ishlar jadal emas. “Avtosanoat”, “Kimyosanoat”, “O‘zbekiston metallurgiya kombinati”, “O‘zbekneftgaz” kabi 22 ta korxonalar haligacha xalqaro moliyaviy hisobot yuritishga o‘tmagan. “O‘zbekiston pochta”, “Uzbekistan Airports”, “O‘zbekiston temir yo‘llari” haligacha kredit reytingi olmagun.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yilgi yig‘ilishda bu kabi masalalarni hal etib, ishlarni jadallashtirish zarurligi ko‘rsatib o‘tili. Xususiy lashtirish sohasidagi 2025-yilgi maqsadlar belgilab olindi. Jumladan:

— 30 trillion so‘mlik davlat mulkini sotib, budjetga kamida 10 trillion so‘m tushumini ta‘minlash;

— 116 ta korxonadagi davlat ulushini va 581 ta ko‘chmas mulk obyekti sotuvga chiqarish;

— 6,1 ming gektar yerni auksionga qo‘yib, sotish hajmini 6 trillion so‘mga yetkazish;

— kamida 300 ta kon va maydonni tashabbuskorlarga taklif etib, 500 milliard so‘m tushum tushirish.

O‘ZA

Bularning natijasida iqtisodiyotga qo‘shimcha investitsiyalar kirib kelib, tadbirkorlikka imkoniyat kengayadi, minglab ish o‘rinlari paydo bo‘ladi.

Yig‘ilishda bu maqsadlarga erishish uchun bir qator yangiliklar berilishi e‘lon qilindi.

Endi tadbirkorlar kamida besh yil ijara davridan tashqari o‘zini sotib olishi mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda 632 ta shunday obyekt bor. Ushbu mulklarni ijara uchun o‘ziga sotish orqali kamida 2 trillion so‘m tushum qilish mumkin.

“O‘zpxatasanoat”ning sotilmasdan qolgan 131 ta aktivlarining boshlang‘ich bahosi 50 foizgacha pasaytirilib, auksionga chiqarildi. Bunda tadbirkorlarga to‘lovlar uch yilgacha bo‘lib to‘lash imkoniyati berildi.

Hozirda respublikadagi 537 ta bozor va savdo majmualarining kamida 51 foiz ulushi mahalliy hokimliklarga tegishli. Endi bu tartib ham o‘zgaradi. Bozorlarda mahalliy hokimlikning majburiy ishtiroki etishi to‘g‘risidagi talab bekor qilinadi. Bu ham tadbirkorlar uchun qo‘shimcha imkoniyat bo‘ladi.

Yer maydonlarini sotish bo‘yicha ham imkoniyatlar kengaytiriladi. Masalan, auksionda uzoq vaqtdan buyon sotilmay turgan, maydoni kichik bo‘lgan yonma-yon joylashgan yer uchastkalari birlashtirilib, qayta auksionga chiqariladi.

Davlat aktivlaridan samarali foydalanib, mahalliy budjetga tushumini ko‘paytirish bo‘yicha yaxshi tajribalar ham bor. Misol uchun, Toshkent shahrida munitsipal toifadagi joylar xatlov qilinib, elektron bazasi yaratildi. 102 ta samarasiz bino hamda 97 gektar bo‘sh yer aniqlanib, auksionga chiqarish boshlandi. O‘tgan yili bino-inshootlar ostidagi 118 gektar yer uchastkalarini xususiy lashtirishdan 60 milliard so‘m tushum bo‘ldi. Bu — 2022-yilga nisbatan 5 karra ko‘p degani.

Endi ushbu tajriba barcha viloyat markazlarida, keyingi yil tumanlarda joriy qilinadi.

Sohadagi yana bir muhim masala — davlat ishtirokidagi korxonalarini xalqaro bozorga olib chiqish. Bugungacha ushbu tizim o‘zini oqlagan va samarasini bergan. Xalqaro tashkilotlar ham buni e‘tirof etyapti.

Mutasaddirlarga ekspertlarni jalb qilgan holda bu jarayonlarni davom ettirish vazifasi qo‘yildi. Bu yil xalqaro bozorlarda yana 28 ta, keyingi yil 10 ta yirik korxonalar aksiyalari ommaviy savdoga chiqarilishi belgilandi.

Bosh vazirga bu bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlab, ijrosini har oйда muhokama qilib borish topshirildi.

Yig‘ilishda muhokama qilingan masalalar yuzasidan vazirlar, tarmoq rahbarlari va hokimlar axborot berdi.

O‘ZA

ENERGETIKANING BARCHA YO‘NALISHLARINI RIVOJLANTIRISH LOYIHALARI BO‘YICHA AXBOROT BERILDI

Davlatimiz rahbariga atom energetikasini rivojlantirishga qaratilgan vazifalar ijrosi yuzasidan axborot berildi.

Mamlakatimizda energetika sohasida ko‘plab loyihalar amalga oshirilgani natijasida oxirgi besh yilda elektr energiyasi ishlab chiqarish 30 foiz ko‘payib, 81,5 milliard kilovatt-soatga yetdi. Oshib borayotgan talabni qondirish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalari ham faol rivojlantirilmogda. Uning generatsiyadagi ulushi 16 foizga yetib, o‘tgan yili 3,2 gigavattli qo‘shimcha quvvat yaratildi.

Bu sohada uzoqni ko‘zlash, kelajakka hozirdan zamin hozirlash kerak. 2035-yilda yurtimizda elektr iste‘moli 121 milliard kilovatt-soat bo‘lishi hisob-kitob qilingan. Shu bois, energetikani barcha yo‘nalishlarda rivojlantirish choralarini ko‘rilmogda.

Xususan, 2030-yilga borib, jami generatsiyada “yashil” energiya ulushini 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Uzoq muddatda atom energiyasi bazaviy manbalardan biriga aylanishi ko‘zda tutilgan/

O‘ZA

Hozirgi kunda kichik quvvatli atom elektr stansiyasi qurish loyihasi ustida ish olib borilmoqda. Uni amalga oshirish imkoniyatlarini muhokama qilish hamda “yo‘l xaritasi” tayyorlash maqsadida ishchi guruhlarning uchrashuvlari o‘tkazildi.

Xalqaro atom energiyasi agentligi bilan 2025-2027-yillarga mo‘ljallangan Qo‘shma harakatlar rejasini ishlab chiqildi. Bo‘lajak stansiya qurilishining har bir bosqichi — loyihalashtirishdan bitgunga qadar Xalqaro atom energiyasi agentligining qat‘iy nazorati ostida bo‘ladi, jahonning eng ilg‘or tajribalari va xavfsizlik talablari tatbiq etiladi.

Yig‘ilishda mutasaddirlar loyihaning borishi, hamkorlar bilan muzokaralar yuzasidan axborot berdi. Ruxsatnomalar olish va moliyalashtirish masalalari, shuningdek, katta quvvatli atom elektr stansiyasining texnik-iqtisodiy jihatlari hamda uni barpo etish rejalari ko‘rib chiqildi.

MAMLAKATIMIZ “OLTIN FONDI”NI QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMI TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-mart kuni iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga oid taqdimot bilan tanishdi.

Davlatimiz tomonidan yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni rag‘batlantirish bo‘yicha keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, 14 ta Prezident maktabi, 185 ta ixtisoslashgan va 9 ta ijod maktabi tashkil etildi. Ulardagi o‘qitish va baholash tizimi 1 ming 500 ta umumta‘lim maktabida ham joriy etildi. Iqtidorli bitiruvchilar uchun “Yangi O‘zbekiston” universiteti ochildi.

Bular — yoshlarimizning jahon darajasida bilim olishi uchun zamin. Endi ularni to‘g‘ri yo‘naltirib, dunyodagi eng ilg‘or universitetlarda o‘qishiga ko‘maklashish zarur.

O‘tgan oyda yoshlar bilan uchrashuvda Prezidentimiz shu borada qator tashabbuslarni ilgari surgan edi. Taqdimotda buning amaliy va tashkiliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Xususan, shu maqsadda joriy yil sentabrdan xalqaro maktab faoliyatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmogda. Bunga dastlab 8-sinf bitiruvchilari orasidan eng iqtidorli 60 nafar o‘g‘il-qiz saralab olinadi. Ta‘lim dasturi xalqaro andoza asosida 3 qismdan — asosiy fanlar, ixtisoslik fanlari, yetakchilik va ijtimoiy faollarni o‘rgatuvchi fanlardan iborat bo‘ladi. O‘quv yili 3 davrga bo‘linib, 11 oy davom etadi.

Prezidentimizning yana bir tashabbusiga muvofiq, yoshlarimizni Amerikaning “Pechak ligasi” (The Ivy League) universitetlariga tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Buning uchun 6 bosqichli Milliy dastur qabul qilinadi. Bu yil dastlab 3 ming nafar

o‘quvchi saralab olinadi. Ularga Prezident va ixtisoslashgan maktablardan 208 nafar maslahatchi birlashtiriladi.

O‘quvchilar Renessans oromgohida yil davomida 3 haftalik intensiv o‘quv kurslarida o‘qitiladi. Yaxshi natija ko‘rsatgan 40 nafar “Pechak ligasi” universitetlariga tajriba almashish uchun yuboriladi.

Keyingi muhim masala — chet elda o‘qigan yoshlarni vatanimizda o‘z sohasi bo‘yicha munosib ish bilan ta‘minlash. Bu borada “Mamlakat oltin fondi hamjamiyati”ni tuzish taklif etilmogda. U orqali iqtidorli yoshlar yagona platformada birlashtiriladi. Xorijda ta‘lim olib qaytganlar uchun imtiyozlar, grantlar, startap dasturlari va boshqa imkoniyatlar yaratiladi. Har yili 25-mayda hamjamiyat qurultoyi o‘tkazilib, unda ta‘lim islohotlari, iqtidorli yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, chet el oliygohlari tajribasi kabi mavzularda muloqot yo‘lga qo‘yiladi.

Davlatimiz rahbari bu takliflarni ma‘qullab, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashni tizimli yo‘lga qo‘yish zarurligini ta‘kidladi.

Bugungi kunda “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali 750 nafar vatandoshimiz xorijda o‘qiyapti. Mutasaddirlarga yoshlarimiz uchun bu imkoniyatlarni yanada oshirish, jamg‘arma faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

XALQ ISHONCHI — ENG MUHIM MEZON

Davlatimiz rahbari 2023-yil 16-17-noyabr kunlari Surxondaryoga tashrifi doirasida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha zarur topshiriqlar bergandi.

Mazkur topshiriqlar ijrosi yuzasidan konsepsiya va takliflar ishlab chiqildi. Xususan, Uzun shaharchasini rivojlantirish, hududlarda geliokollektor va quyosh panellarini o‘rnatish, cho‘l-dasht hududlaridagi bo‘sh yerlardan oqilona foydalanish, charm sanoatini rivojlantirish masalalari ilgari surildi. Bugun bu borada ham ishlar bosqichma-bosqich bajarilmogda.

Davomi 3-betda



Mamlakatimizdagi barcha islohotlar markazida inson hayoti, erkinligi, qadr-qimmatini, farovon turmushini ta‘minlash orqali xalqimizni rozi qilish g‘oyasi mujassam. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va resurstejamkor uskunalardan foydalangan holda aholi xonadonlari, ijtimoiy soha obyektlari va tadbirkorlik subyektlarini issiqlik energiyasi bilan barqaror ta‘minlash zarurati sezilmogda.

“YASHIL” IMTIYOZLI KREDITLAR ENERGIYA SAMARADORLIGIGA XIZMAT QILADI

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish borasida qator vazifalar belgilangan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari 25 ming megavatt hamda jami iste‘moldagi ulushini 40 foizga yetkazish,

ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligini baholash tizimini joriy etish, issiqxonalar gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foiz qisqartirish kabilari ko‘zda tutilgan.

Davomi 3-betda





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

KORRUPSIYA – jamiyat tanasidagi saraton

ODIL SUDLOV – ADOLAT YO'LI VA HALOLLIK PRINSIPI NAMUNASI



Alisher USMONOV, Namangan viloyati sudi raisi

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda axborot sohasini erkinlashtirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Bugungi kunda jamiyatimizda ochiqlik va oshkorlikni rivojlantirish, davlat idoralari va ularning mansabdor shaxslari faoliyati, shu jumladan, odil sudlov ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish borasida keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy tadbirlar amalga oshirilmoqda.

birgalikda kurashishga chorladi, dunyo sahnasida O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'z modelini yaratmoqda. Davlatimiz rahbarining mamlakat oldida turgan vazifalarni hal qilish maqsadida yurtimizning obro'li shaxslari, oqsoqollarini o'zida jamlagan kengash bilan maslahatlashishi xalqimizga xos an'analardan biridir.

Sharqda demokratiyaning muhim elementlari kengashlar va qurultoylar sifatida namoyon bo'lib, davlatni boshqarishda ushbu institutlardan samarali foydalanilgan. Ayniqsa, sobiqqiron Amir Temur davrida davlatni boshqarishda hozirgi kundagi qurultoy, kengashlar alohida o'rin tutgan. Vaqti-vaqti bilan muhim ijtimoiy-siyosiy muammolarni yechishda kengashlar chaqirilib turilgan.

Buyuk bobokalonimiz "Temur tuzuklari" da ham o'z vorislariga, hukmdorlarga piri saltanat ishlarida amal qilinishi shart bo'lgan to'rt amaldan biri sifatida "boshqalar bilan mashvarat-u maslahat aylash" lozimligini uqtirgani bejiz emas.

Shu nuqtayi nazardan, Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining joriy yil 5-mart kuni bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbari aniq taklif va tashabbuslarni ilgari surib, yig'ilish qatnashchilarining fikr-mulohazalarini tinglagani diqqatga sazovordir.

Aslida, Prezidentimiz tomonidan barcha yig'ilish va anjumanlarda korrupsiyaga

qarshi kurashish masalasiga alohida to'xtalib kelingan bo'lsa-da, lekin Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashida bevosita ishtirok etib, jamiyat uchun eng og'riqli bo'lgan ushbu masalani tizimli tahlil qilib bergani, erishilgan natijalar bilan birgalikda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar oshkora aytilib, ularni bartaraf qilish uchun aniq chora-tadbirlar belgilangani ahamiyatlidir.

Albatta, korrupsiyaga qarshi kurashishda erishilgan natijalar mas'ul idoralar, balki boshqa davlat idoralari va tashkilotlar, tadbirkorlar, fuqarolik jamiyati instituti vakillari va keng jamoatchilikning yangicha ish uslubiga o'tayotgani samarasidir.

Kezi kelganda ushbu ma'ruzaning uchta asosiy jihati alohida qayd etish lozim:

Birinchisi — diagnostik, ya'ni "tashxis qo'yuvchi" jihat, unda tahlil asosida mamlakatda davlat va jamiyat qurilishi, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashda mavjud holat, uning samaradorligi, natijadorligi aniqlanib, atroficha baho berildi.

Bunga misol sifatida davlat idoralari qog'ozbozlik va inson omili keskin kamaytirilgani, aholi va tadbirkorlarga "xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgani, xususan, 120 turdagi hujjatni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnoma bekor qilinishi

aytish mumkin. Natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkor bozorga kirib keldi, chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi.

Elektron davlat xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetkazildi, ulardan foydalanuvchilar esa 11 milliondan oshdi. So'nggi yetti yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kirib, iqtisodiyotimiz 2 karra o'sdi hamda o'tgan yili 115 milliard dollarga yetdi. Bu kabi aniq raqamlarda ifodalangan tahlillar ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Ikkinchisi — yo'nalishni aniqlashtirib beruvchi jihat. Prezidentimiz nutqida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining strategik maqsadi va ustuvorliklari, vazifa va yo'nalishlari, amalga oshiriladigan chora-tadbirlar va buning uchun zarur qonunlar, hukumat qilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab berishga oid chora-tadbirlar ko'rsatilgan.

Jumladan, huquq-tartibot idoralari, asosan, korrupsiyani aniqlash va jazolash bilan shug'ullanib, korrupsiyaviy omillarni tag-tomiri bilan yo'qotadigan preventiv choralar e'tiborsiz qolayotgani, shu bois, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ish uslubini tubdan o'zgartirilishi, endi prokuror, ichki ishlar va soliq rahbarlari sektorlar faoliyati bilan shug'ullanmasligi, ularning diqqat-e'tibori jinoyatchilikning oldini olish, unga qarshi kurashishda bo'lishi, korrupsiyaning oldini olish davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlashdan boshlanishi, shu bois, ishga olishdagi tartib va yondashuvlarni takomillashtirish, davlat xizmatdoshlarini daromadini deklaratsiyalashga oid qonun zarurati qayd etilib, uning loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilishi kabi



Davlat idoralari qog'ozbozlik va inson omili keskin kamaytirilgani, aholi va tadbirkorlarga "xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgani, xususan, 120 turdagi hujjatni talab qilish, 160 dan ortiq litsenziya va ruxsatnoma bekor qilinishi aytilish mumkin. Natijada 200 mingga yaqin yangi tadbirkor bozorga kirib keldi, chet el ishtirokidagi korxonalar qariyb 5 karra oshib, 23 mingga yaqinlashdi.

aniq maqsadga yo'naltirilgan 55 ta tashabbus ilgari surildi. Ular doirasida 5 ta qonun, 12 ta farmon va qaror ishlab chiqilishi belgilandi.

Uchinchisi — birlashtiruvchi va safarbar qiluvchi jihat. Davlatimiz rahbari o'z nutqida jamoatchilikka murojaat qilib, korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtodoshimizning vijdon ishi ekanini ta'kidlab, bildirgan tashabbuslari orqali xalq vakillari siyosida jamiyat va davlatni mamlakat oldida turgan eng muhim vazifa — korrupsiyaga qarshi kurash yo'lida birlashtiradi.

Prezidentimizning sud tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish, odil sudlov sifati va samaradorligini oshirish doimo diqqat markazida bo'lishi, sudlar faoliyatiga har qanday aralashish odil sudlovga soya solish deb baholanishi, bu bo'yicha so'rov ham, javobgarlik ham qattiq bo'lishi haqidagi fikrlari barcha sudyalarda va sud tizimi xodimlari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Sohaga bildirilgan ushbu ishonch va mas'uliyatni teran his qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining

sud tizimi xodimlariga yo'llagan murojaati ham barchamiz uchun g'oyat ahamiyatlidir.

Undagi: — sud hokimiyatining nufuzini tushiradigan va sudyaning obro'siga putur yetkazadigan har qanday xatti-harakatlardan o'zini tiyish shartligi;

— odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatga har qanday tarzda aralashish holatlarga toqatsiz bo'lish talab etilishi;

— korrupsiyaviy jinoyatlar uchun aybdor shaxslarga hukm chiqaradigan sudyaning o'zi shunday jinoyatlar qo'l urishi barchamizni chuqur xavotirga solishi kerakligi haqidagi chaqiriqlar doimo yodimizda bo'lmog'i lozim.

Zero, har bir sudya zimmasidagi vazifalarni halol va vijdonan bajarishga, xolis, beg'araz va adolati bo'lishga qasamyod qilgan.

Davlat hokimiyatining bir bo'g'ini vakili sifatida biz, sudyalari korrupsiyaga qarshi kurashish yo'lida yagona kuch sifatida harakat qilib, jamiyatda qonun ustuvorligi va adolati ta'minlab, kasbga sadoqat, vatanparvarlik va fidoyilikda barchaga namuna bo'lmog'imiz lozim.



PARLAMENT DIPLOMATIYASIDA YANGI DAVR

Shu yil 5-9-aprel kunlari O'zbekiston dunyo miqyosidagi yirik tadbir — Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasiga mezbonlik qiladi. 180 dan oshiq davlatni birlashtirgan va parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlovchi bu tashkilot yubiley anjumanini aynan O'zbekistonda o'tkazishga qaror qilgani nafaqat mamlakatimiz, balki Markaziy Osiyo uchun ham katta tarixiy voqea, desak xato bo'lmaydi. Zero, Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi Markaziy Osiyo zaminida ilk bor Toshkentda o'tkaziladi.



1889-yilda tashkil etilgan bu tuzilma parlamentlararo muloqotni kuchaytirish, qonunchilik sohasida tajriba almashish va global muammolar yechimida qonun chiqaruvchi organlar o'rini mustahkamlash borasida tizimli faoliyat yuritib kelmoqda.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Xo'sh, nufuzli tashkilot tomonidan nega aynan Toshkent tanlandi? Bu savolga javob berish uchun keyingi yillarda mamlakatimizda kechayotgan islohotlarga nazar tashlash lozim.

Birinchidan, keyingi sakkiz yilda O'zbekiston ochiq, konstruktiv va pragmatik tashqi siyosat yuritib, nafaqat qo'shni davlatlar, balki xalqaro hamjamiyat bilan ham yaqin muloqot o'rnatishga faol intilib kelmoqda.

Ikkinchidan, Toshkent bugungacha Shanxay hamkorlik tashkiloti sammiti, Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari spikerlari uchrashuvi, Orolni qutqarish bo'yicha xalqaro konferensiya, Iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro forumlar kabi yirik anjumanlarga munosib mezbonlik qildi.

Uchinchidan, mamlakatimiz qonun chiqaruvchi organi — Oliy Majlis palatalari so'nggi yillarda turli davlatlar parlamentlari bilan aloqalarni kuchaytirib, yangi qonunchilik tashabbuslari va demokratik institutlarni mustahkamlash yo'lida katta qadamlar qo'yarmoqda.

Ko'rinib turibdiki, xalqaro tadbirlarni har tomonlama yuqori saviyada o'tkazishda O'zbekiston yaxshi tajriba to'pladi. Shu bois, Parlamentlararo Ittifoq nufuzli yig'ini aynan

Toshkentda o'tkazishni maqsad qilgan, desak mulohaza bo'lmaydi. Aytish kerakki, bu nafaqat yurtimizga bildirilgan ishonch, balki O'zbekistonning xalqaro hamkorlikda tobora muhim o'rin egallayotganidan dalolatdir.

Ushbu yirik tadbir mamlakatimiz uchun bir nechta strategik imkoniyat taqdim etishi bilan ahamiyatlidir.

Xususan, tadbir butun dunyodan yuqori martabali mehmonlar, shu jumladan, parlament spikerlari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, yetakchi siyosatchilarni bir stol atrofida jamlaydi. Bu O'zbekistonning xalqaro siyosatidagi nufuzini yanada mustahkamlash uchun qulay imkoniyatdir.

Shuningdek, assambleya doirasida ko'plab ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazilishi kutilmoqda. O'z navbatida, bu mamlakatimizga qonun ustuvorligini yanada mustahkamlash, mazkur yo'nalishda tajriba almashish uchun qulay imkoniyat yaratadi.

Bundan tashqari, nufuzli tadbirga tashrif buyuruvchi mehmonlar nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy muloqotlarda ham ishtirok etishi ko'zda tutilgan. Bu jihat yurtimizning investitsiyaviy muhiti va iqtisodiy islohotlarini xalqaro maydonda keng targ'ib qilishga yo'l ochadi.

Assambleya kun tartibidagi masalalar va ularning mazmun-mohiyati haqida ham to'xtalib o'tish joiz.

"Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzusida o'tkaziladigan assambleyaning turkum yig'ilishlarida qator dolzarb masalalar muhokama qilinishi belgilangan.

Xususan, mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va kambag'allikning asl sabablari bilan kurashish choralarini muhokama qilindi. Aholini ijtimoiy himoya qilish va kambag'allikni qisqartirish masalasi ham kun tartibida bo'ladi.

Shuningdek, qonun ustuvorligini ta'minlash masalasi ko'rib chiqiladi. Zero, qonun ustuvorligisiz mustahkam taraqqiyotga erishish mushkul. Bugun dunyoda korrupsiya, sud tizimidagi muammolar va huquqbuzarliklarga nisbatan jazo tizimining zaifligi taraqqiyotga to'siq bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib, anjumanda adolati sud tizimini shakllantirish, davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash va fuqarolarning huquqiy himoyasini kuchaytirish bo'yicha xalqaro tajribalar o'rganiladi.

Parlamentlararo uchrashuvda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro mexanizmlar va ularning amaliy samarasi ham muhokama qilindi.

Qobil TURSUNOV, Senatning Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yili AMUDARYODA 200 GEKTARLI O'RMON BARPO ETILADI

Yurtimizda o'rmonlarni ko'paytirish va yashil hududlarni kengaytirish yo'lida muhim ishlar qilinmoqda. Jumladan, Amudaryo tumanidagi Qipchoq davlat o'rmon xo'jaligi tomonidan ham yashil maydonlarni asrash, ekologik muhitni yaxshilash, tuproq unumdorligini oshirish kabi ko'plab vazifalar bajarilayapti. O'rmon xo'jaligida tashkil etilgan ko'chatxonalarda o'stirilayotgan turli manzarali daraxt va buta nihollari ekologik muammolarni hal etishda katta ahamiyatga ega.

O'rmon xo'jaligi Nazarxon va Qipchoq bo'limlaridan iborat bo'lib, xodimlar asosan, qumloqdagi o'rmonlar va saksovulzorlarni saqlash hamda qo'riqlash bilan shug'ullanadi. Shuningdek, mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini yetishtirishga ham alohida e'tibor qaratiladi. O'rmon xo'jaligidagi ko'chatxonada asosan, manzarali, igna bargli, mevali daraxtlar va saksovul ko'chatlari yetishtiriladi.

2024-yili Qipchoq davlat o'rmon xo'jaligida 20 gektar o'rmon fondi yeri foydalanishga kiritilgan. O'rmon va butazorlar maydonini kengaytirish bo'yicha belgilangan reja 800 gektar bo'lib, amalda 5915 gektarga yetkazilgan. Shuningdek, daraxt va butalarning 30 ming 125 kilogramm urug'i tayyorlandi. Ushbu urug' Orol dengizining qurigan tubida o'rmon barpo etish maqsadida yetkazib berilmoqda.

— 2019-2024-yillarda xo'jalik 106 gektar maydonda ihota o'rmonini barpo etdi. Bundan tashqari, shu yillarda 31 hududda joylashgan 140 ta fermer xo'jaligi hududiga 161 ming 157 tup ko'chat ekildi. Ushbu ishlar ko'zlangan asosiy maqsad — shamol va qum ko'chishining oldini olish, yerning hosildorligini oshirish hamda ekologik muhitni yaxshilashdir, — deydi Qipchoq davlat o'rmon xo'jaligi direktori Erkinboy To'rayev.

O'tgan yili 151 ming 792 tup ko'chat yetkazib berish bo'yicha 82 ta muassasa va korxonalar bilan shartnoma imzolangan. Turli tashkilotlar 40 ming 881 tup ko'chat bilan ta'minlangan. Jumur o'vulida "Mening bog'im" loyihasi doirasida 2,5 gektar yer obodonlashtirilib, hudud tabiiy go'zal maskanga aylantirilgan. Mazkur bog' hududiga 1417 tup manzarali daraxt niholi ekilgan.

Joriy yilda o'rmon fondidagi yerdan oqilona foydalanish uchun tumanida 231,5 gektar yer ajratilib, unda turli ekologik va iqtisodiy yo'nalishdagi loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, tuman hududidagi 200 gektar maydonda cho'l o'simliklari, tez o'suvchi daraxtlar va butalar ekiladi. Bu hududning ekologik holatini yaxshilash bilan birga havo tozaligini ta'minlash va tuproqni eroziyadan himoya qilishda katta ahamiyatga ega.

Na'matak, lavanda, moychechak, dalachoy va tog' rayhoni yetishtirish maqsadida 30 gektar maydon ajratildi. Bu o'simliklar tibbiyot va farmatsevtika sohasida keng qo'llanib, ulkan iqtisodiy samaradorlikka ega. 1 gektar yerda donli, dukkakli va poliz ekinlari yetishtirish ham nazarda tutilgan. Bundan tashqari, 116 gektar yer ajratilib, kambag'al oilalar a'zolarining bandligini ta'minlash maqsad qilingan.

Umuman, Amudaryo tumanidagi Uyshin, Amir Temur, Bo'z yop, Kuyuk ko'pir, Oq oltin, Bobur va Qanqli kabi ovul va mahalla fuqarolar yig'inlariga umumiy hisobda 6832 tup manzarali daraxt ko'chati va qalamchasi yetkazib berilishi rejalashtirilgan. Bu atrof-muhitni obodonlashtirish bilan birga hududning iqlim sharoitini yaxshilash, chang va issiqlikni kamaytirish, suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi.

Minajatin QUTLIMURATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Inson qadri uchun

Yangi ish o'rinlari yaratish, aholini tadbirkorlikka jalb etish maqsadida oxirgi 2 yilda 8 mingga yaqin tadbirkorlik tuzilmasi tashkil etildi. Natijada ishsizlik darajasi 7,4 foizdan 6,1 foizga qisqardi. 60 mingdan ziyod oila kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 10,6 foizdan 7 foizga tushirildi.



yer qayta foydalanishga kiritildi. Amudaryo qirg'og'ida 20 ming gektar yer o'zlashtirilib, sholi yetishtirish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, 2022-2024-yillarda 15 ming 830 gektar yer 22 ming ishsizga ajratildi. Aholi tomorasida yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash uchun esa 74 ta (4035 tonnalik) sovirkich ombor va 88 ta (16 tonnalik) quritish uskunasi ishga tushirildi. Agrologistika quvvati esa 110 ming tonna yetkazildi. G'alladan hosildorlik esa 70 sentnerdan 86,2 sentnerga yetkazildi. Turizm va madaniyat sohasida ham viloyatimizda salmoqli ishlar bajarildi. So'nggi 2-yilda viloyatga jami 1,2 millonga yaqin xorijiy, 3,5 million ichki sayohat keldi. Turizm xizmatlari eksporti 140 million dollarni tashkil

XALQ ISHONCHI – ENG MUHIM MEZON



Ulug'bek QOSIMOV, Surxondaryo viloyati hokimi, senator

Boshlanishi 1-betda

Surxondaryo viloyati ulkan iqtisodiy, geografik va transport imkoniyatiga ega. O'ziga xos tabiiy iqlim sharoiti tufayli vohada yiliga ikki-uch marta hosil olish, issiqsevar o'simliklar yetishtirish mumkin. Yaratilgan imkoniyatlar ortidan zamonaviy korxonalar tashkil etilib, yangi ish o'rinlari ochilmoqda. Qishloq xo'jaligi hamda kichik biznes ichkil rivojlanmoqda.

Bunday ishlar natijasida Muzrabotdan Sariosiyoqa qadar, Bobotog'dan Boysuntog'gacha bo'lgan hududda yashovchi 2 million 880 mingdan ortiq kishi bugunidan rozi yashamoqda, hududlar obod va fayzli bo'layotir. Zotan, xalq ishonchini oqlash yo'lidagi muhim qadamlar davlatimiz rahbari Prezident sifatida faoliyat boshlagan dastlabki kunlardan o'tirilgan. O'tgan davrda baxtli va farovon hayot kechirish umidi bilan yashayotgan xalqimiz orzularini ro'yog'ga chiqarish yo'lida katta tashabbuslar, keng ko'lamli chora-tadbirlar, salmoqli loyihalarni amalga oshirildi. Mana shu islohotlar natijasini Surxon vohasida aqli ham o'z hayoti misolida ko'rib, his qilmoqda.

Joylarda Xalq qabulxonalarini tashkil etildi. Hama idora va tashkilotda "Fuqarolar qabulxonasi" ochildi. Rahbarlar hududlarda aholi bilan ochiq va sayyor muloqotlar o'tkazish boshladi. Viloyatning eng chekka, hatto qo'shni davlatlarga chegaradosh hududlaridagi oddiy

xalq vakillari, turli kasb egalari bilan bevosita muloqotda bo'lib, ularning murojaatlariga yechim topilyapti. Orzulari ijobat bo'lib, armoni ushlab olingan. Davlat idoralari rahbarlari bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish, fikr-mulohazalarini bildirish imkoniyatiga ega bo'lgan surxondaryoliklar kayfiyati o'zgardi, tafakkuri yangilandi, marrani baland oladigan bo'ldi.

Xalq hayotini yaxshilash, farovonligini oshirish, fuqarolarning ertaga emas, balki bugunidan rozi bo'lishiga erishish amaldagi islohotlarning bosh maqsadiga aylandi. Bunda, eng avvalo, bandlik, ijtimoiy sohalar, ayniqsa, sog'liqni saqlash, ta'lim-tarbiya, tabiiy gaz va elektr energiyasi, ichimlik suv ta'minoti, kommunal xizmat, yo'l qurilishi sohalaridagi muammolar, odamlarni qiynayotgan masalalar izchil bartaraf etilmoqda.

Natijada Surxon vohasida qator yutuqlarga erishildi. Birgina misol: so'nggi 2 yilda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi amaliy sa'y-harakatlar tufayli yalpi hududiy mahsulot hajmini 106,1 foiz, sanoat-ishlab chiqarishni 111 foiz, qurilish ishlari 108,5 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni 103,8 foiz va xizmat ko'rsatish hajmini 117,9 foiz oshirishga erishildi.

Yangi ish o'rinlari yaratish, aholini tadbirkorlikka jalb etish maqsadida oxirgi 2 yilda 8 mingga yaqin tadbirkorlik tuzilmasi tashkil etildi. Natijada ishsizlik darajasi 7,4 foizdan 6,1 foizga qisqardi. 60 mingdan ziyod oila kambag'allikdan chiqarilib, kambag'allik darajasi 10,6 foizdan 7 foizga tushirildi.

Davlatimiz rahbari vazirliklar va hokimliklar ish vaqtining kamida 50 foiz tadbirkorlar muammolarini o'rganish va ularga yordam berishga sarflanishi, ular faoliyatini baholashda tadbirkorlikni rivojlantirish holatiga alohida e'tibor berilishini davlat siyosati darajasiga chiqardi. Natijada bir vaqtlar tadbirkorlarni "quvg'in qilish"da faol ishtirok etgan rahbarlar bugun ularning eng yaqin yordamchisi, ko'makchisiga aylandi.

Bu borada vohada joiybi o'zgarishlar ko'p. Xususan, so'nggi 2 yilda qiymati 16,3 trillion so'mlik 1765 ta investitsiya loyihasi ishga tushirildi hamda 28 mingdan ortiq yangi ish o'rni ochildi. 1,2 milliard dollar to'g'ridan

to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirildi. Bu bilan o'sish sur'ati 200 foizni tashkil etdi.

2023-yilda Termiz shahridagi 2,1 gektar maydonda yosh tadbirkorlar uchun "Tinchlik" yoshlar sanoat zonasida "sanoat ipotekasi" asosida 47 ta lotda loyihalarni ish boshladi. Jami 523 million dollarlik tovar va xizmatlar eksportga chiqarilib, 10 ta yangi davlat bozorlariga chiqishga erishilib, yana 43 turdagi mahsulotlar eksporti yo'lga qo'yildi. Shu bilan eksportga chiqarilayotgan tovarlar turi 323 taga yetdi. Misol uchun, 10 dan ortiq davlatga Surxondaryo viloyati hokimligi delegatsiyasining safari uyushtirilib, investitsiya, savdo hamda ijtimoiy-madaniy



aloqalarga doir 50 ga yaqin kelishuvga erishildi.

Yillik xizmat ko'rsatish qiymati jami 10 million dollarga teng bo'lgan 26 gektar maydonda joylashgan "Termiz xalqaro savdo markazi" faoliyati yo'lga qo'yildi hamda 500 dan ortiq savdo shoxobchasi ochildi. Afg'on fuqarolariga 15 kunlik vizasiz rejim joriy etilgani hamda savdo va eksport faoliyatiga imtiyozlar berilgani natijasida 7,8 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Natijalar bu bilan cheklanib qolgan yo'q. Angor tumani "Top Quality-Brand" MCHJ tomonidan charam ishlab chiqarishga mo'ljallangan qiymati 23,2 million dollarga teng loyiha ishga tushirildi. Sherobod tumanida BAAning "Masdar" kompaniyasi tomonidan 457 MVt quvvatli, qiymati 260 million dollarlik quyosh elektr stansiyasi loyihasi amalga oshirildi. "Oltinsoy Cotton Cluster" MCHJ tomonidan Oltinsoy tumanidagi 40 gektar yerda Oltiriq tajribasi asosida qiymati 8 milliard so'mlik uzumzor barpo etildi. Boysun tumanida "Narzi Qushbegi" XK tomonidan qiymati 5,8 million dollarga teng mehmonxona va hunarmandlar markazi ishga tushirildi. "Termez



boshlab yuborilgan. Misol uchun, "Turon Eko Kumir" MCHJ tomonidan yillik quvvati 100-150 ming tonna ko'mir mahsuloti qazib olishga mo'ljallangan qiymati 50 million dollarlik "Ko'mir ishlab chiqarishni tashkil etish" loyihasi, "Ekspo Group Soal" MCHJ tomonidan qiymati 21,9 million dollarlik "Ko'mir qazib olish va qayta ishlash" loyihasi ishga tushirildi. Sariosiyo tumanida "Sharg'un ko'mir" AJ tomonidan qiymati 1,3 trillion so'mlik loyiha foydalanishga topshirildi.

Ijtimoiy sohadaqi ishlar ham aholining roziligiga sabab bo'lyapti. Jumladan, To'palang suv omboridan Termiz shahrigacha sifatli ichimlik suv yetkazib kelish loyihasi amalga oshirildi. Uning doirasida viloyatdagi 1,7 million kishi istiqomat qiladigan 493 ta mahallaning suv ta'minotini tubdan yaxshilash loyihasining 1-bosqichi ishga tushirildi. Termizda 300 o'rinli tibbiyot klasteri tashkil etildi. Surxondaryo tajribasi asosida dastlab Angorda, keyinchalik barcha hududlarda patronaj tizimi joriy etildi.

Viloyatda har qirich yerdan samarali o'ting yillarda 20 ga yaqin kon salohiyati ixtisrovlarga ajratildi. Bugun 4 ta ko'mir konida qazib olish va ishlab chiqarish ishlari



etdi. 45 ta mehmonxona va xostel barpo etildi. 16 ta madaniy meros obyektida restavratsiya va qazishma-o'rganish ishlari bajarildi. Sayyohlarga qulay infratuzilma yaratish maqsadida oxirgi 2 yilda 23 ta madaniy meros obyektiga olib boruvchi 73 kilometr yo'lining holati yaxshilandi.

Termiz shahridagi Bobur bog'i 20 milliard so'm evaziga yoshlar sayilgohiga aylantirildi. Qo'shimcha zamonaviy amfiteatr, kutubxona, ovqatlanish shoxobchasi, attrakionlar hamda boshqa xizmat ko'rsatish obyektlari foydalanishga topshirildi. Xorijiy turistlar oqimini ko'paytirish maqsadida bir qancha mamlakatda o'tkazilgan 10 dan ortiq xalqaro turizm yarmarkasida viloyat delegatsiyasi ishtirok etdi.

Yangi O'zbekistonda xalqni rozi qilish barcha rahbaming eng ustuvor vazifasiga aylandi. Zero, xalqning ishonchini, mehri ni qozonish eng oliy saodatdir. Bu yo'lda, Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, "Bir tan-u bir jon bo'lib harakat qilsak, yangi O'zbekistonni albatta bunoyd etamiz!".

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi

"YASHIL" IMTIYOZLI KREDITLAR ENERGIYA SAMARADORLIGIGA XIZMAT QILADI

Boshlanishi 1-betda

Ayni maqsadda mamlakatimizda issiqlik ta'minoti sohasini isloh qilish, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda binolarda energiya yo'qotishlarini kamaytirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Gap mavjud resurslardan samarali foydalanish, isrof qilmaslik haqida ketar ekan, dono xalqimizning "Yotib yenganga tog' ham chidamaydi" degan naqli yodga tushadi. Yoshligimizda o'ta-onamiz, yoshi ulug'lardan bu naqlni, ayniqsa, qish kunlari ko'p eshitganmiz. Energiya resurslari ham tabiat ne'mati. Bitmas-tuganmas emas.

Yodingizda bo'lsa, kech kul arafasi havo harorati asta-sekin pasayib, kun soviy boshlagan kunlarda maktabimiz va uyimizdagi eshik-derazalar tirqishini paxta yoki shunga o'xshash sovuqni to'sishi mumkin bo'lgan biror narsa bilan yopib chiqardik. Endi o'ylasam, bu harakatimiz bir oz bo'lsa-da natija bergandir, lekin ish bermagani aniq. Chunki o'sha kezlarda

qish qahratonida uy ichidagi harorat 20 darajadan past bo'lmasdi, nazarimda. Har holda pechka yonayotgan mahal uyda yupqa kiyimda bo'lardik. Olov o'chgandan keyin xonamiz tashqaridan ham soviy ketgandek tuyulardi. Shunday bo'lmasligi uchun pechlar yarim kechagacha o'chirilmas, har yili har bir xonadon ko'mir yoki o'tin g'amlandi.

Qishloq'imdagi bugungi vaziyatni ayni xotirlangan holat bilan taqqoslasam, o'sha paytda juda ko'p isrofgarchilik bo'lganini anglayman. Chunki u paytlarda aksariyatimiz faqat uyni isitish haqida o'ylaganmiz va olov yoqganmiz. Issiqlikni saqlash haqida esa o'yab ko'r'maganmiz.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 11-martdagi "Uy-joy hamda bino-inshootlarni issiqlik energiyasi bilan ta'minlash sohasini tubdan isloh qilish hamda binolarning energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan binolarda energiya yo'qotishlarini kamaytirish borasida yangi yo'nalish va maqsadlar belgilab berildi.

Jumladan, sohada yagona davlat siyosatini yuritish, ilg'or xorijiy tajribalar asosida strategik takliflar ishlab chiqish, issiqlik ta'minoti korxonalarini faoliyatini boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi tashkilot tashkil etiladi.

Eng asosiy, markazlashgan issiqlik ta'minotiga ulanmagan to'rt va undan yuqori qavatli ko'p kvartirali uy-joylarning isitish tizimida lokal qozonxonalar qurish va boshqa muqobil texnologiyalarni joriy etish hisobiga bir xonadonning gazga talabini kamida 20 foiz kamaytirish asosiy vazifalar qatoridan joy oldi.

Kelgusi besh yilda markazlashgan issiqlik tizimidagi eskirgan 103 ta qozonxona va 1,6 ming kilometr issiqlik tarmog'i, jumladan, 2025-2026-yillarda 18 ta qozonxona va 258 kilometr issiqlik tarmog'i yangilanadi, — deydi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi boshqarma boshlig'i Ilhom To'rayev. — Shu bilan birga, markazlashgan issiqlik ta'minoti qamrovi 37 foizdan 58 foizgacha yetkaziladi. Tizimdagi yo'qotishlar 38 foizdan 20 foizgacha qisqartiriladi.

Ko'p kvartirali uy-joylar va ijtimoiy soha muassasalariga 8681 ta individual issiqlik punkti o'rnatiladi. Markazlashgan issiqlik ta'minotini yopiq tizimga o'tkazish dasturi ishlab chiqiladi. Issiqlik ta'minoti tizimini yopiq tizimga o'tkazish chora-tadbirlari uchun davlat byudjetidan 50 milliard so'm yo'naltiriladi. Natijada energiya resurslariga talab sezilarli darajada kamayadi.

Qayta tiklanuvchi elektr manbalari qurilmalari, ya'ni issiqlik nasoslari, quyosh panellari va resurstejamkor uskunalaridan foydalangan holda Chinoz va Oltiriq tumanlarida to'rt qavatli uy-joy fondini muqobil, barqaror issiqlik manbalari bilan ta'minlash hamda energiya samaradorligini oshirish uchun izolyatsiyalash tajribasi o'tkaziladi. Nima uchun aynan Chinoz va

Oltiriqda? Chunki ushbu hududlarda issiqlik energiyasi samaradorligi juda past. Shuning uchun bu tumanlar tanlab olingan.

Mazkur tajriba natijalaridan kelib chiqqan holda, barcha hududlarda 2026-2030-yillarda uy-joylar fondini yaxshilash, energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Shuningdek, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi huzurida "Issiqlik ta'minoti" AJ tashkil etiladi hamda vazirlikka issiqlik ta'minoti sohasida yagona davlat siyosatini yuritish vazifasi yuklatiladi. Joriy yilda sohadaqi istiqbolli loyihalarni boshlash uchun xalqaro moliya institutlaridan 68 million dollar, 2026-2030-yillarda issiqlik qozonxonalar va issiqlik tizimlarini zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya va rekonstruksiya qilish loyihalari uchun xalqaro moliya institutlaridan 257 million dollar jalb qilinadi.

Bu yil ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 320 milliard so'm ajratilsa, 2026-2030-yillarda ushbu dastur doirasida 1,6 trillion so'm yo'naltiriladi.

Jahon bankining Xalqaro taraqqiyot jamg'armasidan jalb qilingan 143 million dollar miqdoridagi qarz mablag'i o'zlashtirildi. Shu bilan birga, xalqaro moliya institutlaridan maqbul shartlardagi kredit, grant va texnik yordamlar jalb qilinadi.

Joriy yildan boshlab mamlakatimizdagi barcha davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyosh suv isitish tizimlari, ya'ni geliokollektorlar bilan to'liq jihozlanadi. Shuningdek, Buxoro viloyatidagi ijtimoiy soha va davlat muassasalarida energiyatejamkor uskunalar o'rnatish, bino va inshootlarning fasad va tom qismini izolyatsiya qilish loyihalari amalga oshiriladi. Keyingi yildan boshlab mazkur tajriba asosida har bir hududda to'rttadan ijtimoiy



soha va davlat muassasasi tanlab olinib, ushbu maqsadli chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

2025-yil 1-iyundan moliyalashtirish manbalardan qat'i nazar, qurilishda texnik shartlar olinishi talab qilinadigan bino-inshootlarni qurish hamda rekonstruksiya qilishni loyihalashtirishda ushbu obyekt-larning loyiha hujjatlarida binolarning o'z ehtiyoji uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari va muqobil issiqlik tizimlari hamda energiya tejoychi uskunalarini majburiy o'rnatish talabi kiritiladi. Ko'p kvartirali uy-joylar va binolarning ichki issiqlik va issiq suv tarqatuvchi tizimlari qurilishi, inshootlar va tarmoqlarda hisoblagichlar to'liq o'rnatilishi majburiy etib belgilandi.

Markazlashgan issiqlik ta'minoti mavjud hududlarda yangi qurilayotgan ko'p kvartirali uy-joylar, ma'muriy binolar, ijtimoiy soha muassasalari, sanoat va tadbirkorlik subyektlari bino va inshootlarining issiqlik tarmoqlariga ulanishi majburiy bo'ladi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida ham yangi quriladigan bino-inshootlar va uy-joylar energiya samaradorligidan kelib chiqib, "Yashil bino" sertifikatini joriy etilishi belgilangan, — deydi Iqtisodiyot va moliya vazirligi yetakchi mutaxassisi Azizjon

Gulboyev. — Joriy yildan boshlab har bir hududda yakka tartibdagi kamida 100 ta uy-joy uchun mablag' ajratiladi. Bu pul ularning energiya samaradorligini oshirish, energiyatejamkor deraza va eshiklar o'rnatish, qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari, ya'ni geliokollektor, quyosh panellari bilan ta'minlash uchun sarflanadi.

Ushbu rejalamni amalga oshirish uchun joriy yilning o'zidanoq "yashil" imtiyozli kreditlar ajratish orqali aniq maqsadli mexanizm ishlab chiqiladi. "Yashil" imtiyozli kreditlar energiya yoqotishlarini kamaytirish, bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirish, ularni energiyatejamkor texnologiyalar bilan ta'minlash uchun ajratiladi.

Qisqasi, ushbu qaror islohotlarga hamohang ravishda issiqlik ta'minoti korxonalarini faoliyatini takomillashtirish, binolarning isitish tizimini mutlaqo yangilash va muqobil texnologiyalarni joriy etish kabi muhim vazifalarni qo'yadi. Eng muhimi, bu chora-tadbirlar mavjud resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit muassafoligini saqlash, pirovardida inson qadri va farovon hayotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

YANGI HUJJAT, YANGI VAZIFALAR

Joriy yil 24-fevralda Prezidentimizning "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjat asosida Prezident huzuridagi Statistika agentligi Milliy statistika qo'mitasi sifatida qayta tashkil etilib, funksiya va vazifalari sezilarli darajada kengaytirildi. Ular nimalardan iborat? Quyida shular xususida fikr yuritamiz.

Milliy statistika qo'mitasi endi nafaqat statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, balki ularning ishonchligini ta'minlash, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida yanada ko'proq mas'uliyatli vazifalarni bajaradi.

Farmon asosida tashkil qilingan Respublika statistika kengashi ushbu yo'nalishdagi ishlarni tashkil etish tizimini yaratishga ko'maklashish hamda rasmiy statistikaning tayyorlovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, u rasmiy statistikaning yuritish tizimini rivojlantirish va faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi.

"Maslahatchi" xatoni aniqlaydi, "Tahlilchi" tavsiya beradi

Bugungi kunda jahon statistika idoralari faoliyatini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston ham bu borada ilg'or texnologiyalarga asoslangan yangi tizimlarni joriy etmoqda. Farmon tashabbuslarni amalga oshirishga turtki beradi. Xususan, har bir viloyat, tuman va shahar bo'yicha iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlarni avtomatik shakllantirish imkonini beruvchi "Hududlar statistikasi" axborot tizimi ishga tushirildi. Tizim orqali hududlardagi demografik holat, iqtisodiy faollik, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalari va boshqa muhim ko'rsatkichlar haqida real vaqt rejimida ma'lumot olish imkoniyati yaratiladi. Davlat organlari, tadbirkorlar, tahlilchilar uchun ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlashtirish mexanizmi takomillashtiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarga hisobot topshirish jarayonida maslahat berish uchun sun'iy intellektga asoslangan "Maslahatchi"

interaktiv xizmati joriy etiladi. Ushbu xizmat tadbirkorlik subyektlariga statistik hisobotlarni shakllantirish, topshirish tartibi va talablari bo'yicha avtomatik tavsiyalar beradi. Hisobotlardagi xatolarni aniqlab, ularni to'g'rilash hamda foydalanuvchilarning savollariga tezkor javob qaytarish uchun moslashtiriladi.

Foydalanuvchilarga statistik ma'lumotlarni tez va oson izlab topishda ko'maklashish uchun "Tahlilchi" konsultativ xizmati ishga tushirildi. Foydalanuvchilarning ma'lumotlarga ehtiyojini qondirish, statistik manbalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutuvchi xizmat orqali turli sohalar bo'yicha mavjud ma'lumotlarni izlash, saralash va tahlil qilish jarayonlari yanada soddalashtirilishi kutilmoqda. "Tahlilchi" statistik



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining aniq statistik hisob-kitobini yuritish maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Kadastr agentligi va boshqalarning ma'lumotlaridan keng foydalaniladi. Bu esa tarmoqdagi real holatni tahlil etish va samarali qarorlar qabul qilishda qo'l keladi.

Tadbirkorlar uchun yengillik va raqamli integratsiya

Farmon doirasida kichik biznes va mikrofirmalar uchun statistik hisobot topshirish jarayoni soddalashtirildi. Jumladan, xodimlar soni 5 nafardan kam va yillik daromadi BHMning 2000 barobarigacha bo'lgan korxonalar endi hisobotni har yili emas, uch yilda bir marotaba taqdim etadi. Lekin davlat ulushi 50 foizdan yuqori hamda aksiz solig'i to'lovchi korxonalar bundan mustasnodir.

Raqamli integratsiya vositasida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ma'lumot almashinuvi tezkorligi va aniqligi oshirilmoqda. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlari avtomatlashtirilishi esa hisobot berish tartibini soddalashtirib, shaffoflikni oshiradi. Shundan kelib chiqib, bir qator yangi yondashuvlar joriy etilmoqda, mavjudlari takomillashtirilmoqda. Jumladan, Milliy

statistika qo'mitasi mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatini haqidagi ma'lumotlarni Soliq qo'mitasining axborot tizimidan olib, tegishli statistik ko'rsatkichlarni shakllantiradi. Natijada tadbirkorlar uchun ma'muriy yuklarni kamayib, ma'lumotlarni yig'ish jarayoni tezlashadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining aniq statistik hisob-kitobini yuritish maqsadida Qishloq xo'jaligi vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Kadastr agentligi va boshqalarning ma'lumotlaridan keng foydalaniladi. Bu esa tarmoqdagi real holatni tahlil etish va samarali qarorlar qabul qilishda qo'l keladi.

Milliy statistika qo'mitasi davlat organlari va tashkilotlarining axborot tizimlari bilan to'g'ridan-to'g'ri integratsiya qilinishi orqali elektron ma'lumot almashinuvi huquqiga ega bo'ladi. Bu jarayon ma'lumotlarni uzatishini avtomatlashtirib, statistik tahlil tezkorligi va aniqligini ta'minlaydi. Bunday o'zgarishlar raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish, inson omilini kamaytirish va statistik ma'lumotlarni sifatini oshirishda ayni muddaodir.

Yangi filial tashkil etiladi

Milliy statistika tizimida zamonaviy talablarga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash maqsadida 2025/2026 o'quv yilidan boshlab Milliy statistika qo'mitasi huzurida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining iqtisodiy statistika kafedrasida filiali tashkil etiladi. Filial statistika sohasida nazariy va

Xalqaro standartlar bo'yicha muhim tashabbuslar amalga oshiriladi

Joriy yil yakuniga qadar milliy statistika tizimida sifatini boshqarishning ilg'or mexanizmlarini joriy etish holati baholanadi va mavjud muammolar aniqlanadi. Shuningdek, sifatini oshirish uchun xalqaro tajribalar o'rganilib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni ularning faoliyat yo'nalishlari va iqtisodiy tasniflagichlar asosida tartibga solinadi. Bu ham rasmiy ro'yxatga olish jarayonini soddalashtirish va tadbirkorlar uchun qo'shimcha qulaylik yaratadi.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 2026-2030-yillarga mo'ljallangan Statistika rivojlantirish milliy strategiyasi ishlab chiqiladi. Strategiyada milliy statistika uslubiyatlarini xalqaro tashkilotlar standartlariga uyg'unlashtirish, tadbirkorlar uchun hisobot yukini kamaytirish, raqamli yechimlardan keng foydalanish hamda talab yuqori bo'lgan tahlil ma'lumotlarni tayyorlash mexanizmini joriy etish nazarda

JORIY YIL YAKUNIGA QADAR MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA SIFATNI BOSHQARISHNING ILG'OR MEKANIZMLARINI JORIY ETISH HOLATI BAHOLANADI VA MAVJUD MUAMMOLAR ANIQLANADI. SHUNINGDEK, SIFATNI OSHIRISH UCHUN XALQARO TAJRIBALAR O'RGANILIB, TEGISHLI TAVSIYALAR ISHLAB CHIQLADI.


- xodimlar soni 5 kishigacha
- sof tushumi 2000 *BHMgacha
(750 mln so'm)

- xodimlar soni 5 kishidan ortiq
- sof tushumi 2000 *BHMdan ortiq
(750 mln so'm)

+ 263 ming
kichik korxonalar
3 yilda
bir marotaba statistik hisobot taqdim etadi

+ 99 ming
kichik korxonalar
har yili statistik hisobot taqdim etadi

Axborot tizimidagi ma'lumotlarni shakllantirish mexanizmi



amaliy bilimlarni uyg'unlashtirgan holda yuqori malakali kadrlar tayyorlaydi. Ta'lim jarayoniga qo'mitaning tajribali mutaxassislari jalb qilinib, nazariya va amaliyot uyg'unligi ta'minlanadi. Talabalar amaliyotlari bevosita statistika organlarida tashkil etiladi. Bu tashabbuslar soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, ta'limda nazariya va amaliyot integratsiyasi, statistika tizimini rivojlantirish va ta'limni zamonaviy talablarga moslashtirishga xizmat qiladi.

tutiladi. Bular mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan birga, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shaffof va aniq statistika esa to'g'ri qarorlar qabul qilishning eng muhim garovidir.

Usmon ABDURASULOV,
Milliy statistika qo'mitasi
axborot va media markazi rahbari

Bugunning gapi

QAYTA MOLIALASH STAVKASI O'ZGARDI

Buning ta'siri nimalarda namoyon bo'ladi?

Markaziy bank boshqaruvi tomonidan shu yil 20-mart kuni asosiy stavka 0,5 foiz bandga oshirilib, yillik 14 foiz darajada belgilangani to'g'risida qaror qabul qilindi. Buni mutasaddilar so'nggi oylarda transchegaraviy pul o'tkazmalari va aholiga ajratilgan kredit faollashib borayotgani, yil boshidan asosiy savdo hamkorlari valyutasining mustahkamlanishi ta'sirida real samarali almashuv kursi pasayish tendensiyasini namoyon etib, o'zining o'rta muddatli trendiga yaqinlashayotgani bilan izohladi.

Aslini olganda, asosiy stavkaning o'zgarishi yangilik emas. Bu Markaziy bank faoliyatining bir qismi. Lekin buning tijorat banklarining kredit va depozit bo'yicha foiz stavkalariga, umuman, mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri bor.

Xo'sh, ular nimalarda namoyon bo'ladi? Asosiy stavkaning oshirilishi yoki kamaytirilishi tadbirkorlarni ishlab chiqarish, odamlar hayotida qanchalik seziladi?

Aytib o'tganimizdek, bazaviy stavkani o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilish Markaziy bankning odatiy ishi. Iqtisodiy jarayon, moliyaviy holatlardan kelib chiqib, asosiy stavkani o'zgartirish bo'yicha yilliga sakkiz martagacha qaror qabul qilinishi mumkin. Bugun aksariyat mamlakatda, jumladan, O'zbekistonda qayta moliyalash stavkasi banklar uchun kredit qiymati va

iqtisodiyotdagi foiz stavkalari darajasini belgilovchi asosiy stavka sifatida qo'llanadi.

Asosiy stavka doim bir xil bo'lib turishi qiyin. U iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 1995-yil martda bu ko'rsatkich mamlakatimizda juda yuqori bo'lib, hatto 300 foizga yetgan. Bu holat giperinflatsiya va beqaror moliyaviy tizim tufayli yuzaga kelgandi. Keyingi yillarda bir oz tushish kuzatilgan, lekin yuqori darajada qolgan. Ya'ni 150-40 foizni tashkil etgan. 1998-yilda stavka 36 foizni tashkil qilgan va 2015-yilga kelib, u 9 foizgacha tushgan. Bu mamlakatimiz moliya tizimi barqarorlashuvi va inflatsiya ustidagi nazoratdan dalolat berardi. Biroq turli iqtisodiy shoklar va inflatsiya xatarlari tufayli oradagi bir necha yilda asosiy stavka sezilarli darajada ko'tarildi. 2023-yildan



boshlab esa yana pasaya boshladi: o'sha yilning martida 14 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil iyulida 13,5 foizga tushirildi. Joriy yil martida esa, yuqorida keltirganimizdek, yana 14 foiz etib belgilandi.

Asosiy stavka banklararo bozorda qisqa muddatli mablag'larning qiymatini belgilaydi va tijorat banklari o'rtasidagi kreditlar hamda qarzlarni bo'yicha operatsiyalar foiz stavkalari uchun mezonidir. Uning o'zgarishi banklararo bozorning foiz stavkalariga ta'sir qiladi. Ko'tarilsa, omonatlar jozibadorligini oshiradi, kreditga talabni esa kamaytiradi.

Natijada iste'mol sekinlashib, narxlar va inflatsiya barqarorlashuviga yordam beradi. Agar inflatsiyaning maqsadli darajadan pastga tushish xavfi mavjud bo'lsa, Markaziy bank iqtisodiy faoliyatini rag'batlantiradigan asosiy stavkani ham kamaytirishi mumkin.

Mamlakatimizda depozitlar bo'yicha foiz stavkasi barqaror o'smoqda. Masalan, 2019-yilda jismoniy shaxslar uchun ular 17,4 foizdan 2024-yilda 21,3 foizga o'sdi. Yuridik shaxslar uchun muddatli omonatlar bo'yicha foiz stavkasi umumiy hisobda 14,6 foizdan 18,5 foizga yuqoriladi.

yordam beradi. Lekin ayni paytda iqtisodiy o'sish uchun to'siqlar yaratadi. Kredit olish imkoniyatini cheklab, tadbirkorlik faolligini kamaytiradi. Bu omillar o'rtasidagi mutanosiblik joriy makroiqtisodiy vaziyat va Markaziy bank tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga bog'liq.

Bu iste'molchilarni ham hushyorlikka chorlaydi. Ya'ni ular moliyaviy tavakkalchilikni imkon qadar kamaytirib, mablag'ini samarali boshqarish uchun yangi iqtisodiy voqeelikka moslashishi zarur. Avvalo, asosiy kreditlardan tiyilish kerak. Yangi kreditlarga ehtiyojni sinchkovlik bilan baholash va ularni faqat o'ta zarur bo'lganda olish muhim.

Shu bilan birga, ko'tarilgan qayta moliyalash stavkasi depozitar bo'yicha foiz stavkasi oshishiga olib keladi. Bu jamg'armalar ko'proq foyda keltiradi, degani. Bo'sh pul mablag'ini bank depozitariga joylashtirish kapitalni saqlab qolish va ortgan xarajati qoplash uchun yaxshi vosita bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, yuqori foiz stavkasi davrida ishlab chiqaruvchilar ham xarajati minimallashtirish, rentabellikni saqlash va yangi bozor sharoitiga moslashish uchun moliyaviy strategiyasini o'zgartirishi kerak. Chunki, birinchi navbatda, biznes uchun asosiy muammo qarz mablag'i qiymatining ko'tarilishi bo'ladi. O'zgaruvchan talabga moslashish, mijozlarga yanada qulay shart-sharoit taklif etish va eksport qilish (tashqi bozorlarga chiqish) imkoniyatini ko'rib chiqish ham muhim. Bunday sharoitda moslashuvchanlik va strategik rejalashtirish muvaffaqiyat omiliga aylanadi.

Maxfurat EGAMOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti professori



SUN'IY INTELLEKT

UNING IJOBIY VA XAVFLI KO'RINISHI HAQIDA MUHOZARALAR

Bugun sun'iy intellekt tushunchasi tobora ommalashib, uning insoniyatga turmush tarzidagi o'zgarishini kengaytirib bormoqda. Olimlar fikricha, sun'iy intellekt bashariyat tarixida o'ziga xos yangi davrni boshlab beradi. Kelgusida biz foydalanayotgan barcha sohalar aynan sun'iy intellektga moslashishga qaysidir ma'noda majbur.

Shunga qaramay, sun'iy intellekt nisbatan yangi tushuncha bo'lgani bois, ikkilanishlar ham yo'q emas. Uning ijobiy jihatlari ko'pmi yoki salbiysi? Aynan shu kabi savollar atrofida bahs-munozaralar to'xtamayapti. Biroq shuni aniqlik bilan aytish mumkinki, sun'iy intellekt insoniyatlaridan foydalanishni erta boshlaganlar zarar qilmaydi.

Mamlakatimizda ham sun'iy intellekt insoniyatlariga to'g'ri baholaniib, undan foydalanish tobora ommalashmoqda. Qilinishi lozim bo'lgan ishlar hali ko'p, biroq natijalar ham allaqachon bo'y ko'rsata boshlagan. Xo'sh, sun'iy intellektni rivojlantirish yurtimiz taraqqiyotiga qanchalik hissa qo'shishi mumkin? Sohani takomillashtirishda qanday jihatlarga ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiq?

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti direktori o'rinbosari Azizjon NURIDDINOV bilan suhbatimiz shu mavzuda bo'ldi.

— Eng avvalo, sun'iy intellekt haqida umumiy tushuncha bersangiz. Uning qisqacha tarixi o'quvchilar uchun qiziq, albatta.

— Sun'iy intellekt o'zi nima? Sodda tilda tushuntirsa, sun'iy intellekt — kompyuterlarning odam kabi o'ylashi va ish bajarishi. Masalan, rasmlarni tanishi, gaplasha olishi, murakkab masalalarni yechib bilishi va yangi narsalarni o'rganishi.

1950-yillarda olimlar "Kompyuterni odam kabi o'ylashga o'rgatsa bo'ladimi?" degan masala bilan qiziqib boshladi. Alan Turing ismli olim "Kompyuter aqalon aqlli bo'ladi?" degan savolga javob topish uchun maxsus "Turing testi"ni o'ylab topdi. 1956-yilda bir guruh olimlar jamlanib, ayni sohaga sun'iy intellekt deb nom berdi.

1960-yillardan juda ko'p yangiliklar bo'y ko'rsatdi — kompyuterlar shaxmat o'ynashini o'rgandi, sodda savollarga javob bera boshladi. 1970-1980-yillarda qiyinchiliklar ko'p edi, chunki o'sha paytdagi kompyuterlar unchalik kuchli emasdi. 1990-yillardan keyin kompyuterlar takomillashtirilib, internet paydo bo'lgach, sun'iy intellekt yanada tez rivojlandi.

— Ko'plab olimlar "sun'iy intellekt — kelajak", demoqda. Bir qarashda, bu bir o'z mavhum tushuncha. Ya'ni bu kelajak ijobiy, salbiyimi? Bu boradagi fikrlaringiz qiziq.

— Bu juda o'rinni va dolzarb savol. Keling, sun'iy intellektning ijobiy va xavfli jihatlari tahlil qilib ko'raylik.

Ijobiy jihatlari sanasak. Sun'iy intellekt vositasida jahon tibbiyotida katta o'zgarishlar qilinib, masalan, kasalliklarni erta aniqlash imkoniyati, yangi dori-darmonlar yaratish, jarrohlik amaliyotlarini aniqroq bajarish mumkin.

Shuningdek, ta'limda inqilob qilish, ayni sohani tubdan isloh etish va rivojlantirish mumkin. Masalan, har bir o'quvchiga individual yondashuv imkoniyati, 24/7 tartibida ishlovchi o'qituvchi-yordamchi, o'quv materiallarini tez va sifatli tayyorlash kabilar. Ish samaradorligini oshirishda zerikarli ishlarni avtomatlashtirish, xatolarni kamaytirish, vaqtni tejash mumkin.

Shu bilan birga, salbiy yoki xavfli jihatlari ham yo'q emas, masalan, sun'iy intellekt tufayli ko'plab kasblar yo'qolib ketishi, ishsizlik ortishi, jamiyatda tengsizlik kuchayishi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi zaiflashishi ehtimoli yuqori. Shuningdek, kibernetika xavfi ortib, undan qurol sifatida foydalanish, sun'iy intellekt qarorlarini tekshirish qiyinlashishi, javobgarlik masalasi noaniqlik qolish xavfi hamda odob-axloq me'yorlariga rioya qilish susayishi ham shular jumlasidan.



kelishi mumkin. Sun'iy intellekt — porloq kelajak kaliti, ammo bu kalitning nazorati hamisha e'tibor markazida bo'lishi lozim.

— Sun'iy intellekt odamlarning qo'lidan ishini tortib olib qo'yadi, deyapmiz. Bu fikrga kengroq sharh bersangiz. Qo'ldan ishini olib qo'yadimi yoki odamlar o'z ishini sun'iy intellekt orqali bajara boshlaydiki? Shu masalaga batafsilroq to'xtalsak.

— Aslida, "Sun'iy intellekt ishimizni tortib oladi", degan fikr to'la o'zini oqlamaydi. Bu yerda ikki holat mavjud. Ish o'zgarishi haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo, bir necha hayotiy misol bilan boshlash mumkin. Masalan, hisobchilar ilgari kalkulyator yordamida hisob-kitoblarni amalga oshirgan, hozir esa ular 1C dasturi kabi zamonaviy vositalardan foydalanib ishlaydi. Yoki bank xodimlari oldin qog'ozda hisob yuritgan bo'lsa, endi kompyuter dasturlaridan foydalanib, tez va aniq ishlayotgan. Jurnalistlar ham hozirgi kunda sun'iy intellekt yordamida matnlarni tahrirlash va yangiliklar tayyorlash imkoniyatiga ega.

Yangi kasblar paydo bo'lyapti. Masalan, bugungi kunda sun'iy intellekt tizimlarini sozlovchi mutaxassislar, ma'lumotlarni tahlil qiluvchi kadrlar, raqamli marketing bo'yicha mutaxassislar va sun'iy intellekt etikasi bilan shug'ullanuvchilarga talab ortib borayotir.

Hayotiy misol keltirsa. Deylik, biror bankda kredit bo'yicha 10 nafar mutaxassis ishlagan bo'lsin. Sohada sun'iy intellekt joriy qilingandan keyin kredit berish jarayoni avtomatlashtirildi. Ammo bu 10 kishining hammasi ishsiz qoladi, degani emas. Ularning 5 tasi sun'iy intellekt bilan ishlashni o'rganib, yanada samaraliroq mehnat qilishni boshlaydi. 3 kishi mijozlar bilan muloqot

biz uchun raqib emas, balki yordamchidir. Uni to'g'ri ishlata olgan inson yanada muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli yuqori.

— Sun'iy intellekt yurtimizda qachondan iste'molga kira boshladi, soha bo'yicha umumiy ahvolimiz qanday, qanday ishlar amalga oshirildi? Shular xususida ham gapirib bersangiz.

— 2020-2021-yillardan O'zbekistonda sun'iy intellektga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Bu sohada bir nechta muhim qadamlar tashlandi. Masalan, "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi qabul qilindi va Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi.

Ta'lim sohasida ham ko'p ishlar qilyapti. IT parklar ochilmoqda, universitetlarda sun'iy intellekt yo'nalishlari tashkil etildi, onlayn kurslar yo'lga qo'yildi. Amaliy loyihalar ham allaqachon boshlangan bo'lib, masalan, "Aqlli shahar" texnologiyalari joriy etilyapti, davlat xizmatlari raqamlashtirilmog'unda va sog'liqni saqlash tizimida sun'iy intellekt yechimlari qo'llanilmoqda.

Hozirgi kunda sun'iy intellekt vositasida Toshkent shahrida videokuzatuv tizimlari faoliyat ko'rsatmoqda, bank tizimida skoring modellari ishlatilyapti, elektron hukumat xizmatlari rivojlantirilmog'unda, shuningdek, ta'limda ham onlayn platformalar ko'paymoqda.

Lekin bu jarayonda qator muammolar ham mavjud. Masalan, mutaxassislar yetishmasligi, infratuzilma cheklovleri, moliyalashtirish masalalari va qonunchilik bazasining to'liq shakllanmagani. Bu muammolarni hal qilish uchun kelajakda bir necha omillarga e'tibor qaratilishi kerak.

Masalan, sun'iy intellekt sohasida kadrlar tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va mahalliy



Ya'ni biz hozir katta natijalarga erisha olmayotgan sohalarimiz qaysi birlarida yuksalish yuqori bo'lishi mumkin?

— Sun'iy intellekt rivojlanishi mamlakatimiz taraqqiyotida juda katta ahamiyatga ega. Uning vositasida biz bir necha sohada yutuqlarga erishishimiz mumkin. Masalan, qishloq xo'jaligida, tibbiyotda, ta'limda va iqtisodiyotda.

Deylik, qishloq xo'jaligida sun'iy intellekt yordamida tuproqni tekshirish, suv resurslarini tejash va hosildorlikni oshirish mumkin. Tibbiyotda esa kasalliklarni oldindan aniqlash va samarali davolash uchun yangi imkoniyatlar ochiladi. Ta'lim sohasida har bir o'quvchi uchun shaxsiy dasturlar tayyorlash va o'qitish jarayonini yanada samarali qilish imkoniyati yuqori.

sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kengayyapti. Masalan, elektron xizmatlar, onlayn ta'lim platformalari, kasallikni tashxis qilish uchun algoritmlar, korxonalaridagi avtomatlashtirilgan tizimlar va dehqonchilikda zamonaviy texnologiyalarni ko'paytirish kabi yo'nalishlarda undan foydalanish orqali ishlar samaraliroq bo'lib bormoqda.

To'g'ri, muammolar bor. Masalan, sun'iy intellekt bilan ishlash uchun malakali kadrlar yetarli emas, zamonaviy texnika va infratuzilma to'ldirilgan. Shuningdek, ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy huquqlarni himoya qilish borasida qonuniy baza hozircha to'liq ishlab chiqilmagan.

Umumiy jihatdan e'tirof etganda, mamlakatimiz sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga samarali moshlashmoqda, faqat bu jarayonni tezlashtirish uchun kadrlar tayyorlash, infratuzilmani takomillashtirish va qonuniy me'yorlarni mustahkamlashga ko'proq e'tibor qaratishimiz ayni muddao.

— Sun'iy intellektning keng jamoatchilikka tanitish uchun qanday ishlar qilinishi lozim deb hisoblaysiz? Jahon tajribasida buning uchun qanday usullardan foydalaniladi?

— Keng jamoatchilikka sun'iy intellektni tanitish uchun, avvalo, oddiy, sodda tilda bu texnologiyalar imkoniyatlarini va foydalarini tushuntirish zarur. Odamlarga sun'iy intellekt nima ekanini, u hayotimizga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini va boshqa muhim jihatlarni anglatish kerak.

Birinchilik, ma'lumotlarni tarqatish uchun internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar, podkastlar va boshqa zamonaviy vositalardan foydalanish mumkin. Masalan, jahonda Google, IBM, Microsoft kabi kompaniyalar sun'iy intellektni sodda tilda tushuntiruvchi videodarslar, interaktiv loyihalar va onlayn seminarlarni tayyorlamog'unda. Bunday kontentlar odamlarga sun'iy intellektni to'g'ri tushunishga yordam beradi.

Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida sun'iy intellektga oid asosiy tushunchalarni o'rgatish kerak. Masalan, maktablar va litseylarda uning asoslarini o'rgatuvchi kurslar, konkurslar va loyihalarni tashkil etish mumkin. Jahon tajribasidan misol sifatida AQSHdagi "AI4K12" loyihasini keltirish mumkin. Ushbu loyiha o'quvchilarga sun'iy intellekt nima ekanini tushuntirish va ularni texnologiyalar bilan tanishtirish maqsadida yaratilgan.

Uchinchidan, sun'iy intellekt texnologiyalarini amaliyotda ko'rsatish orqali odamlarga uning foydasini tushuntirish ancha samarali. Masalan, shaharlarda sun'iy intellektdan foydalanilgan yangi xizmatlarni, aytaylik, avtomatik tarjimonlar, virtual konsultantlar yoki tibbiyotdagi tashxis tizimlari sistemalarini namoyish etadigan markazlar ochish mumkin. Jahonda bu ishga misol sifatida Singapurdagi "Smart Nation" loyihasini keltirsa bo'ladi. Ularida sun'iy intellektdan foydalanilgan transport tizimlari, energetika bo'limlari va shahar xizmatlari keng qo'llaniladi.

To'rtinchidan, sun'iy intellektning odamlar hayotiga olib keladigan quyaliklariga misollarni ko'paytirish kerak. Yuqoridagi ta'kidlaganimizdek, tibbiyotda kasalliklarni tezkor aniqlash, dehqonchilikda umumdorlikni oshirish, ta'limda shaxsiy

yondashuvni taqdim etish kabi imkoniyatlarni e'tiborga olish zarur.

Shuningdek, sun'iy intellektning xavflari va salbiy jihatlari ham tushuntirilishi kerak. Masalan, ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy huquqlarni himoya qilish va ishsizlik kabi muammolar ko'proq muhokama qilinishi lozim. Bunda Yevropada GDPR (Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy tartibot) kabi me'yorlar sun'iy intellektning tomonlarini muvozanatlashga yordam beradi.

Umumiy aytganda, sun'iy intellektning keng jamoatchilikka tanitish uchun sodda va tushunarli ma'lumotlar, amaliyotdagi misollar, ta'lim orqali tanishtirish va texnologiyalarni ko'rsatib berishdan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Jahon tajribasida bu ishlar muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilmoqda va bizda ham shu usullardan foydalanish imkoniyati bor.

— Sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha o'z takliflaringiz bilan o'rtog'lashsangiz.

— Mutaxassis sifatida bir necha taklifim bor. Ular mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini tezkor va samaraliroq kengaytirishga yordam beradi deb o'ylayman.

Ta'lim tizimini yanada raqamlashtirish. Avvalo, maktablarda va oliy o'quv yurtlarida sun'iy intellekt asoslarini o'rgatish zarur. Masalan, matematika, dasturlash va ma'lumotlar tahliliga oid poydevor kurslarni kiritish kerak. Shuningdek, yoshlar uchun sun'iy intellektga oid loyihalar, konkurslar va xakatonlarni tashkil etish mumkin. Bu ularni texnologiyalarga qiziqish uyg'otadi.

Kichik va o'rta bizneslarga yondashuv. Kichik va o'rta bizneslarga sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini beruvchi arzon va oddiy platformalarni yaratish kerak. Masalan, avtomatik hisob-kitob tizimlari, marketing strategiyalarini ishlab chiqaruvchi yoki mijozlar uchun sun'iy intellektga oid loyihalar, konkurslar va xakatonlarni tashkil etish mumkin. Bu ularni texnologiyalarga qiziqish uyg'otadi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni doimiy davom ettirish. Davlat sun'iy intellekt sohasida ishlarni qo'llab-quvvatlash uchun maksimal yordam berishi ayni muddao. Masalan, sun'iy intellekt loyihalariga investitsiya kiritish, startaplarga grantlar berish, zamonaviy texnika va serverlarga ehtiyojni qondirish. Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq qonuniy bazani muttasil takomillashtirish zarur.

Xorijiy tajribalardan foydalanish. Jahondagi muvaffaqiyatli sun'iy intellekt loyihalarini o'rganish va ulardan tajriba olish kerak. Masalan, Singapur, Finlyandiya, Estoniya kabi mamlakatlarda sun'iy intellekt davlat boshqaruvi, ta'lim va tibbiyotda qanday qo'llanilganini kengroq o'rganish lozim. Ular bilan hamkorlik qilish va ekspertlarni jalb etish ham muhim.

Ma'lumotlar bazasini yaxshilash. Sun'iy intellektning samarali ishlashi uchun ancha katta hajmdagi ma'lumotlar kerak. Shu bois, mamlakatimizda ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va ularni tahlil qilish uchun zamonaviy infratuzilmani yaratish zarur. Bunda ma'lumotlar xavfsizligi va shaxsiy huquqlarni himoya qilishga alohida e'tibor berilishi kerak.

Jamoatchilikka ma'lumotlarni keng tarqatish. Odamlar sun'iy intellekt nima ekanini va uning foydasini tushunishi uchun ma'lumotlarni keng tarqatish zarur. Televizor, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali sun'iy intellektga oid videodarslar, podkastlar va maqolalarni ko'proq tayyorlash ayni muddao. Masalan, "Sun'iy intellekt bizni hayotimizni qanchalik o'zgartiradi?" kabi mavzularda oddiy tilda videokontentlar yaratishimiz lozim.

Fan-texnika parklari va innovatsiya markazlarini ko'paytirish. Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish uchun maxsus fan-texnika parklari va innovatsiya markazlari ochish kerak. Bu yerda yosh mutaxassislar o'z loyihalarini ishlab chiqish, sinash va amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Xalqaro tashkilotlar, universitetlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak. Masalan, Google, IBM, Microsoft kabi kompaniyalar bilan birgalikda sun'iy intellekt loyihalarini amalga oshirish yoki ularidan tajriba olish mumkin.

Sun'iy intellektni rivojlantirishda ta'lim, davlat qo'llab-quvvatlashi, xorijiy tajribalardan foydalanish, ma'lumotlar bazasini takomillashtirish va jamoatchilikda ma'lumotlarni keng tarqatish juda yaxshi samara beradi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Jonibek ALIJONOV suhbatlashdi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Nuqtayi nazar

Ilm — poklik,

U UMRNI NURGA BURKAYDI

YOXUD IKKI YIG'ILISHDA AKS ETGAN MUSHTARAK MAQSADLAR

Mutolaa jarayonida Abdurauf Fitratning quyidagi fikrlariga duch keldim: "Agar kishi tijorat bilan mashg'ul bo'lsa, bu dunyoda farovon yashaydi, agar ibodat bilan shug'ullansa, u dunyoda oxirati obod bo'ladi, agar ilm bilan shug'ullansa, u ikki dunyo saodatiga erishadi".



Nodir MAHMUDOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Kamida bir asr muqaddam ulug' mutafakkir bobomiz bunday xulosaga o'z-o'zidan kelmagan aniq. Abdurauf Fitratning yuqoridagi fikrlari qatoridan joy olishi mumkin bo'lgan iqtiboslarni izlab, yana manbalarga murojaat qildim. "Ilm yolg'izlikda hamroh, g'urbatda sirdosh, do'stlar huzurida ziynat, dushmanlarga qarshi o'f'kir qurol", degan ekan Rizouddin bin Farixiddin.

Odami bo'lish, oila tutish, ovqatlanish, kiyinish, yurish-turish, salomlashish, so'zlashish, dehqonchilik va tijorat uchun ham ilm kerak. Ilm kirmagan va boshqarmagan biror soha yo'q. U insonga ato etilgan ne'matlarning eng fazilatli va qudratli, dunyodagi bor narsa — amalning, baxt-u saodatning, savob-u gunohning barchasini mag'zini chaqa biladi, maftunkor va yashirin haqiqatni kashf eta oladi.

Ilm insonga beshikdan to'qabgacha hamroh bo'ladi, ta'lim-tarbiya beradi, rahnamolik qiladi. Donolarimiz: "Ilm dunyo va oxirada o'ziga foyda va zarar bo'ladigan narsalarni bilmoq demakdir", "Ilm yo'li bir muborak yo'ldir, lekin ko'p mashaqqatli va og'irdir, shunday bo'lsa-da, boshi — saodat, oxiri kamolotga borib to'xtaydi", deb yozib qoldirgan. Yahyo ibn Muoz esa: "Ilmning boshi sukut, keyingisi tinglash, undan keyingisi esa uni yod olish va navbatdagisi unga amal qilish va eng oxiri insonlarga o'rgatishdir", degan. Nazarimizda, bundan ortiq ta'rif topish va kelishish ortiqcha urinishdan boshqa narsa emas.



Inson hayoti mobaynida o'zidan yaxshi nom qoldirish uchun intiladi, izlanadi, o'qiydi. Natijada esa shakllantirgan teran tafakkuri, aql-u shuuri bilan yon-atrofga ma'rifat nurini sochishga muvaffaq bo'ladi. Kishilarni ezgulikka chorlaydi, yaxshilikka undaydi. Asosiyi, jamiyatda sog'lom muhit yaratishga munosib hissasini qo'shishga harakat qiladi. Hayotning go'zalligi, insoniylikning bardavomligi, jamiyatning farovonligi esa ilm tufaylidir.

Bir kuni akademik Ahmadali Asqarov bilan katta intervyu tayyorlab, ayrim fikrlarni to'ldirish, pishitish masalasida maslahatlashgani yana huzuriga bordim. Maqolani qayta o'qib, ayrim tuzatishlar kiritdik. Olimning kayfiyati avvalgidek emasdi, sal xafaqon. Ketar chog'im buning sababini so'radim.

— Ayrim talabalarni ko'rib, asabim buziladi. Darslarga ilm olish uchun kelyapimi, shunga harakat qilishi kerak-da. Ba'zilar o'zining ham, domlarning ham vaqtini behuda sovradi. Alam qiladigan, iqtidorlilar qatorida tanbalroqlari ham o'qishni bitirib, diplomli bo'ladi. Bundaylar ilmsizlik oqibatida o'zini o'tga-cho'qqa uradi, qing'ir yo'llar bilan bo'lsa-da, moddiy manfaat ko'zlaydi, umrining oxirigacha faqat o'zini o'ylaydigan, hammaning asabiga tegadigan quvvisi kadr bo'lib qolaveradi, — dedi akademik kuyinib.

Buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriyning "Odob durdonalari" ("Al-Adab al-mufrad") kitobida keltirilgan muborak hadisi sharifda "Hech bir ota o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros bera olmaydi", deyiladi. Xulq-u odobning tag zamirida esa ilm yotadi, u ilm-ma'rifat vositasida shakllanadi.

— O'zbekiston azaldan intellektual kuchlar vatani bo'lib kelgan, — deya davom etdi Ahmadali aka. — Yaqingacha bola tarbiyasini bog'chadan, maktabdan, oliy o'quv yurtlaridan talab qilib keldik. Uning asl ildizi oiladan boshlanishiga e'tibor bermadik. Endilikda farzand tarbiyasida oilaning roli katta ekanini yaxshi bilsak-da, bu asnoda haligacha keng ko'lami amaliy ishlarga o'tilgani yo'q. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", "Bir bolaga yetti mahalla ota-ona", degan maqollar bejiz aytilmagan. Tarbiyachi bola oldida har jabhada ibrat namunasi bo'la olmasa, uning ta'siri bo'lmaydi. Tarbiyachilar esa ko'proq o'z vazifasini emas, balki ko'proq pul ishlashni

o'ylaydi, bolaning ota-onasidan har bir bayramda sovg'a-salomlar kutadi. Maktablarda ham shu ahvol. Bular ayrim fuqarolar qalbida tarixiy tafakkurning sayozligidan dalolat beradi.

Ilm olish jarayonida yoshlarning niyati pok va bir butun bo'lsa, albatta, ilm uni yorug'likka yetaklaydi, undan kelajakda kishilarning ma'naviy ehtiyojlarini qondira biladigan, baxtu saodatga to'g'ri va chiroyli erishishga chorlaydigan olim chiqadi. Shunday komil mutaxassislarni yetishtiruvchi ta'lim muassasasi pedagoglari ham bugungi kunda hayot zaruratiga aylangan. Qars — ikki qo'ldan, deydi. Ikki qo'l bir-biriga uyg'unlashganda, harakatga kirganida bir-birini poklaydi, ikki qo'l birlashganda kuch-qudrat ham yanada oshadi.

— Ba'zi yoshlarimiz, ularning otonalari va qo'shtirmoq ichidagi ayrim pedagoglar o'qish bahona soxtalini vujudga keltirayotganiga, soxtalik yuzalikni kengaytirib kelayotganiga, yuzalik bilimga emas, quruq diplomga yetaklayotganiga, ya'ni haminqadar mutaxassis egasi bo'lishga



sababchi ekaniga to'liq tushunmaydi yoki uni anglashni istamaydi, — deydi professor Qudratilla Karimov. — Og'irimg ustidan, yengilning ustidan tarala-bedod qilib, otonasining pulini kulga aylantirayotganlar vaqtini, umrini bekorga sovrayotganini o'ylab ko'rmasa ham kerak. Hamma fojia shunda.

Ilm poklik va halollikni shakllantiradi. Poklik va halollik esa buyuklik, insoniylik, go'zallikni yetaklab yuradi. Prezidentimizning joriy yil 14-fevral kuni yoshlar bilan uchrashuvi mamlakatimizda navqiron avlodni qo'llab-quvvatlashga, ularni ilmiy qilishga nechog'liq yuksak e'tibor qaratilayotganini ko'rsatish bilan birga, hukumat va yoshlar o'rtasidagi hamkorlikning yangi uflarini ham ochib berdi. Bugun dunyoda ro'y berayotgan global o'zgarishlar sharoitida bunday samarali va samimiy uchrashuvlar, muloqotlar juda-juda zarur va dolzarb.

Uchrashuv avvalida davlatimiz rahbari yoshlar timsolida yangi O'zbekistonning bugungi va ertangi bunyodkorlarini ko'rayotganini ta'kidlab, turli sohadagi yutuqlari bilan tengdoshlariga o'rnak



bo'layotgan yoshlarni alohida e'tirof etdi. Shuningdek, o'qimishli, bilimli yigit-qizlar safini kengaytirish borasida erishilgan yutuqlarimizga haqqoniy baho berdi. Mazkur uchrashuv hukumat va yosh avlod o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish yo'lida muhim qadam bo'ldi.



Har bir mamlakatning, jamiyatning taraqqiyoti u yerda ilm-u fan, ayniqsa, uning zamonaviy yo'nalishlari naqadar rivoj topgani bilan uzviy bog'liq. Ilmga va uni o'rganishga qaratilayotgan e'tibor o'sha davlatning ertangi kunini belgilab beradi. Bugun IT sektor va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish har qachongidan dolzarb. Joriy yilda O'zbekiston IT sohasi eksport hajmini 1 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan. "Bir million dasturchi" loyihasiga qo'shimcha 300 ming yosh jalb etiladi. Coursera platformasida sun'iy intellekt yordamida o'zbek tilida ta'lim olish imkoniyatiga ega 3000 dan ortiq kurs ishga tushiriladi. Qoraqalpog'istonda "Muhammad Xorazmiy vorislari" loyihasi yo'lga qo'yiladi va unda yana 1000 ta yosh ishtirok etadi.

Bundan tashqari, BAA bilan O'zbekistonda "Bir million sun'iy intellekt foydalanuvchilari" loyihasini amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi. Ushbu loyihani ro'yobga chiqarish bilan Raqamli texnologiyalar vazirligi shug'ullanmoqda. O'tgan yili 25 ming qiz axborot texnologiyalari sohasida bepul ta'lim oldi. Joriy yilda dasturchi ayollar sonini

ikki barobar oshirish rejalashtirilgan. 1000 nafar iqtidorli qiz IT lagerlarda xalqaro olimpiadalarga tayyorlanadi.

Yig'ilishda yoshlarning qiziqish va ehtiyojlarini barvaqt aniqlash, salohiyatini monetizatsiya qilish, ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarga jalb etishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish muhimligi ta'kidlandi. Prezidentimiz mas'ul idoralarga raqamli ijtimoiy ekotizimni joriy etish bo'yicha uzoq muddatli strategiyani ishlab chiqish topshirig'ini berdi.

Bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlariga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnatga, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilyapti.

Terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kibernetiklik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarur.

Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg' oq qabli ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqan. Davlatimiz rahbari loqaydlik va beparvolik eng katta xavf ekanini, bugun uchrayotgan ijtimoiy muammolarni kamaytirish uchun nuroniylar tarbiyasi, jamoatchilik nazorati yetishmayotganini ko'p ta'kidlaydi, jamoatchilikni, ziyolilarni faollikka, hushyorlikka chaqiradi.

Shu kabi ijtimoiy illatlarni bartaraf etishda axloqqa poklik, halollik fazilatlarini shakllantirish masalalari bo'yicha barcha ta'lim muassasalari va tashkilotlarda doimiy o'qitish va malaka oshirishni ta'minlash, shuningdek, bu borada amaliy yo'nalishga ega tegishli o'quv materiallarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga joriy etishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Prezidentimiz shu yil 5-mart kuni yana bir muhim mavzuda ma'ruza qildi. Korruptsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishdagi ushbu nutqda davlat va jamiyat boshqaruvida zamonaviy xodimning axloqqa poklik, halollik fazilatlarini shakllantirish, ma'naviyatini yuksaltirish dolzarbligicha qolayotgani, davlat xizmatchilari korruptsiya xatti-harakatlar sodir etishining oldini olish maqsadida asosiy e'tiborni jamiyatimiz ahlining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratish, keng jamoatchilik, birinchi navbatda, mutasaddi tashkilotlar birinchi rahbarlarining kundalik vazifasi ekanini kabi masalalar o'rtaga tashlandi.

Sababi, bugun dunyoning qator mamlakatlarida moddiyatga berilish, nafsni

qondirish, buyumga sig'inish kabi illatlar urchidi. Fikr va buyumlar, inson tanasi va ruhiyati, tabiat va madaniyatning tovarga aylantirilishi bugungi kunning asosiy muammosiga aylanib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari yig'ilishda bu muhim masalaga to'xtalib, "Korruptsiyani yengish uchun, birinchi navbatda, uning ortiqcha hashamat va dabdaba degan o'q ildizlarini quritishimiz shart. Eng achinarlisi, bunga tanliq shaxslar bosh-qosh bo'lyapti, odamlar ularga tenglashaman deb o'zini o'tga-cho'qqa uryapti. Bu borada ayrim rahbarlar o'zining kamtarona turmush tarzi bilan barchaga namuna bo'lish o'rniga bunday soxta qadriyatlar asiriga aylanib, noqonuniy daromad topishga intilyotganini ham bor gap", dedi kuyinchalik bilan.

Demak, bugun keng jamoatchilik birlashib, e'tibor qaratishi lozim bo'lgan masalalar yig'ilib qolgan. To'y-hashamlar bilan bog'liq ortiqcha xarajatlar ming-minglab oilalarning nafaqat iqtisodiy ahvoriga, balki butun hayotiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ortiqcha orzu-havaslarni insonni nopok yo'llar bilan pul topishga undaydi. Endi to'y-hashamlar va turli ma'raka tadbirlari bilan bog'liq masalalarni qat'iy tartiblashtirish talab etiladi.

Dabdababozlik va hashamatchilikning jamiyat uchun o'ta zararligini inobatga olib, davlatimiz rahbari ham mazkur yig'ilishda parlament palatalari, mahalliy kengashlar, jamoatchilik vakillari, ziyolilar, mahalla raislari, nuroniylarni bu masalaga bosh-qosh bo'lib, aholi orasida tushuntirish ishlarini kuchaytirishga chaqirdi.

Korruptsiyani yengish qiyin, toki inson dunyoqarashining asosini imon, e'tiqod, vijdon, halollik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlar tashkil etmasa. Korruptsiyaning oldini olish murakkab, toki buning muhim shart-sharoiti sifatida halol mehnat orqali daromad topish insonning hayotiy ehtiyojiga aylansasa.

Nazarimizda, Prezidentimizning joriy yil 14-fevral kuni yoshlar bilan uchrashuvi va 5-mart kuni korruptsiyaning oldini olish bo'yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilishda ko'rilgan masalalada bog'liqlik bordek. Gap shundaki, ilmiy inson hech qachon korruptsiya botqog'iga botmaydi. Negaki, u har bir qadami, xatti-harakati uchun har qanaqasiga hisob berishi kerakligini biladi. Korruptsiya o'zi yashayotgan jamiyat taraqqiyotini ortga surishini, qilmishlarining asoratini kelgusida farzandlarini tanazulga duchor qilishini angleydi. Ilm orqali o'zini tanigan inson korruptsiyadan hazar qiladi.

Korruptsiyadek illatga qarshi kurash mamlakatimizning yaqin va uzoq yillar uchun belgilab olingan Taraqqiyot strategiyasini to'liq amalga oshirishga xizmat qiladi. Korruptsiyaga qarshi kurashish umummilliy vazifa, har bir vatanparvar yurtdoshimizning vijdon ishidir.

Qayerdadir jinoyat sodir etib, ya'ni pora olib qo'lg'a tushgan amaldorlar, mas'ul shaxslar, huquq-tartibot idoralari xodimlari haqida turli ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari kunda xabar berib turibdi. Bizningcha, bu illatning tomiri ilmsizlikka borib taqaladi. Agar hafsalada bilan tadqiqot olib borilsa, ularning aksariyati umrida qo'lga kitob ushlamagan, o'z vaqtida amaltaqal qilib, pora evaziga o'qishga kirgan va pora bilan o'qishni tugatib, diplom olgan bo'lib chiqsa ham kerak. Bundaylarda maqsad azaldan mo'ayy daromad topish, birorta mas'ul vazifani egallab, faqat moddiy manfaat yo'lida hech narsadan qaytmaslik bo'lgan. Shukri, ta'lim tizimidagi bugungi islohotlar bunday holatlarning ildiziga bolta urmoqda.

Bu endi alohida mavzu.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"
gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 346.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhir: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy